

№01-07/1
16.02.2023-й.

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv”
agentligi direktori,
Hay’at raisi



U.M. Yusupov

2023-yil 16-fevral

“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi
1-son BAYONI

2023-yil 16-fevral

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

U.M.Yusupov

“O‘zarxiv” agentligi direktori, Hay’at
raisi

Qatnashdilar:

Sh.Sadikov, X.Isayev,
D.Kucharova, A.Mamanazarov,
D.Zakirova

“O‘zarxiv” agentligi Hay’ati a’zolari

Taklif qilinganlar:

G.Boboyeva, D.Madiyeva,
S.Haqnazarov

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbiri,
“O‘zbekiston 24” radiokanali jurnalisti,
“Mahalla” radiokanali jurnalisti

Agentlik markaziy apparati xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari.

KUN TARTIBI:

I. “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida (**U.Yusupov**).

II. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish, hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, N.Anarkulova D.Yusupov**);

– *amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha rahbarlar hisobotlari* (**D.Zakirova, B.Axmedov, A.Maxkamov**).

III. Davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta’minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma’lumotlarni kiritish holati to’g’risida (**X.Isayev, A.Ziyatdinov**).

IV. Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlarida hamda O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida o‘tkazilgan o‘rganishlar to‘g‘risida (**Sh.Xojiboyev**):

– *amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha rahbarlar hisobotlari* (**N.Axmadaliyev, A.Maxkamov**).

V. Turli masalalar.

I. “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh. Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

“O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupovning “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti eshitildi

1) Norma ijodkorligi yo‘nalishida, quyidagi 2 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-sentabrdagi 501-son qarori qabul qilingan va **Davlat mulki bo‘lgan arxiv hujjatlari yoki ularning ko‘chirma nusxalarini, shuningdek Milliy arxiv fondining nodavlat qismiga kiritilgan arxiv hujjatlari yoki ularning ko‘chirma nusxalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha olib chiqish uchun ruxsatnoma pasporti** tasdiqlangan. Unga ko‘ra jismoniy va yuridik shaxslar ruxsatnoma olish uchun ortiqcha sarf-xarajat hamda vaqt sarflamasdan **license.gov.uz** axborot tizimi orqali “O‘zarxiv” agentligiga ariza yuborish va natijalarni olishi mumkin bo‘ldi;

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiqlashtirish maqsadida “O‘zarxiv” agentligi direktorining **2022-yil 28-iyundagi 121-son** “Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida” buyrug‘i qabul qilingan va Adliya vazirligida **2022-yil 29-iyulda 1703-1 raqam** bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan;

2) Arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati yo‘nalishida:

290 ta vazirlik, idoralar va ularning hududiy bo‘linmalari hamda boshqa tashkilotlarda davlat nazorati tadbirlari o‘tkazilgan;

o‘tkazilgan tekshirish natijasida arxiv ishiga mas‘ul xodimlarning **10 nafariga** (*Agentlik 9 nafarga, Namangan viloyati 1 nafarga*) ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar tuzilib, tegishli sud organlariga yuborilgan;

4 ta o‘tkazilgan tekshirishlar bo‘yicha to‘plangan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan;

qonunchilik hujjatlari talablari buzilganligini bartaraf qilish haqida **218 ta** ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritilgan;

3) Asosiy ko'rsatkichlarni bajarilishida:

Davlat arxivlari saqloviga vazirlik va idoralar hamda tashkilotlardagi Milliy arxiv fondiga tegishli **195,2 ming saqlov birligidagi** arxiv hujjatlari qabul qilingan;

tashkilot va korxonalarining **408,3 ming saqlov birligidagi** arxiv hujjatlari shartnoma asosida tartibga keltirilgan;

tashkilotlarga uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida **1 475 ta** o'rganishlar o'tkazilgan;

tashkilotlar uchun arxiv ishi va ish yuritishga oid **1 659 ta** ichki lokal, jumladan, Yig'majildlar nomenklaturasi, ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha yo'riqnomalar, Idoraviy arxiv, Ekspert komissiyasi nizomi ishlab chiqilgan;

arxiv xizmatlaridan davlat arxivlari tomonidan **25,391 mlrd. so'mlik**, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **15,855 mlrd. so'mlik** pullik xizmatlar ko'rsatilgan;

4) Xalqaro munosabatlar yo'nalishida:

2022-yil mobaynida **60 ta murojaat** kelib tushgan bo'lib, shulardan **55 nafar xorijiy foydalanuvchiga** davlat arxivlari o'quv zallariga tashrif buyurib, u yerdagi arxiv materiallaridan o'rnatilgan tartibda foydalanishga ruxsat berilgan;

Arxiv ishi sohasida **xalqaro hamkorlik** yuzasidan "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi va Amerika Qo'shma Shtatlari Xolokost yodgorlik muzeyi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma" asosida AQSH Xolokost muzeyi bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda;

2022-yilning 5-6-aprel kunlari "O'zarxiv" agentligi direktori boshchiligidagi delegatsiyaning Isroil Davlatiga xizmat safari doirasida **Al-Aqso masjidi kutubxonasi** saqlovidagi **Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziyning nodir qo'lyozmalari** o'rganildi, shuningdek, kelishuvga ko'ra, ushbu kutubxona saqlovidagi mavjud qo'lyozmalar (kitoblar)ning elektron nusxalari "O'zarxiv" agentligiga taqdim etildi hamda **53 ta qo'lyozmalarining elektron nusxalari** O'zbekiston Milliy arxivi tomonidan davlat saqloviga o'rnatilgan tartibda qabul qilib olingan;

2022-yilning 21-24 dekabr kunlari Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni huzuridagi Davlat arxivlari boshqarmasi bilan hamkorlikda tayyorlangan "Hujjatlarda Turkiya-O'zbekiston aloqalari" nomli kitob-albom taqdimoti o'tkazilgan;

2022-yil davomida "O'zarxiv" agentligi tomonidan Yad Vashem, Xolokost qurbonlari va qahramonlarini xotirlash boshqarmasi, "Ozarbayjon Respublikasi Milliy arxiv boshqarmasi, Polsha Respublikasi Milliy xotira instituti, Qirg'iziston Respublikasi Raqamli rivojlanish vazirligi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida turli xil memorandum va bitimlar imzolangan;

O'zbekistondagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi tashkilotchiligidagi **2022-yil 29-sentabrda** o'tkazilgan **"ShHT doirasida madaniy-gumanitar hamkorlik vektorlari"** mavzusidagi xalqaro konferensiyasida ishtirok etilgan, mazkur konferensiya yakunida **"Xalq diplomati"** ko'krak nishoni bilan "O'zarxiv" agentligi direktori taqdirlangan;

5) Maxfiylikdan chiqarish yo‘nalishida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PF-5834-son Farmonining 3-bandiga muvofiq, “O‘zarxiv” agentligi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan tarixiy davr (1917-yilgacha) bo‘lgan arxiv hujjatlaridan **10 ta fondan jami 56 ta yig‘majild** o‘rnatilgan tartibda **maxfiylikdan chiqarilgan**;

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi mutasaddi vakillari bilan birgalikda O‘zbekiston Milliy arxivining “maxfiy” grifi ostida saqlanayotgan **R-314 “Уполномоченный управления по эвакуации населения при Совете Народных Комиссаров УзССР” va R-837 “Совет Народных Комиссаров УзССР”** fondlarining **603 ta varaqdan** iborat arxiv hujjatlari o‘rnatilgan tartibda maxfiylikdan chiqarilgan.

Shu bilan birga, Agentlikning hududiy boshqarmalari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomida belgilangan vakolatlardan Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan to‘liq **foydalanilmaslik holatlari uchramoqda**.

Xususan, arxiv hujjatlarini topshirish, saqlash va ulardan foydalanishning, shuningdek, arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan xizmat ko‘rsatishning belgilangan tartibini buzganlik holatlari aniqlanganligi yuzasidan Arxiv ishi hududiy boshqarmalari (*Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy (prokuraturaga yuborilgan) va Namangan viloyatlari bundan mustasno*) tomonidan birorta ham ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar tuzilmagan va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda sud organlariga **yuborish choralari ko‘rilmagan**.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida Agentlik Hay‘ati qaror qiladi:

1. “O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupovning “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 10-avgustdagi 64-son yig‘ilish bayoni bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlarida sarflanayotgan elektr energiyasi sarfini qisqartirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida, respublika davlat arxivlarida 2022-yilning 1-yarim yilligida sarflangan elektr energiyasi sarfiga nisbatan 2-yarim yilligida sarflangan elektr energiyasi sarfi **22,60 foizga qisqartirishga erishilgan** bo‘lsada, **biroq** quyosh panellarini o‘rnatish ishlari sust bajarilayotganligi **ko‘rsatib o‘tilsin**.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari 2023-yil 1-mayga qadar “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta‘minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-son qarori ijrosi yuzasidan xatlovda aniqlangan arxiv hujjatlarining elektron nusxalarini tizimga kiritilish ishlarini amalga oshirsinlar.

4. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari (Sh.Sadikov):

ikki hafta muddatda arxivlarning arxiv hujjatlarini tartibga keltirish guruhi xodimlari uchun tartibga keltirishning har bir jarayonini to‘liq qamrab oluvchi onlayn seminarlar tashkil etish choralari ko‘rsin, bunda tegishli barcha xodimlarni keng qamrab olinishi nazarda tutilsin.

o‘n besh kun muddatda Adliya vazirligi bilan hamkorlikda tuman (shahar) darajasidagi davlat arxivlarini mazkur hududdagi taklif etilayotgan binolarga joylashtirishning aniq grafigi loyihasini ishlab chiqsin;

ikki hafta muddatda yig‘majiddlar titul varaqlari, topografik ko‘rsatkichlar, yorliqlar va arxiv ishiga oid boshqa ish hujjatlarining davlat tilidagi na‘munalarini ishlab chiqsin va “O‘zarxiv” agentligi Markaziy ekspert tekshiruv komissiyasiga kiritilsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

2023-yilda davlat arxivlarida arxiv ro‘yxatlarini takomillashtirish ishlari ustuvor etib belgilansin va har choraklik hisobotlarda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Agentlikka hisobot kiritib borsinlar;

sarflanayotgan elektr energiyasi sarfini 30%ga qisqartirish maqsadida yil yakuniga qadar kichik quvvatga ega quyosh panellarini o‘rnatish choralari ko‘rsinlar.

tashkilot va korxonalarda o‘tkaziladigan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati tadbirlarini o‘rnatilgan tartibda, shaffof va adolatli o‘tkazilishi, natijadorligi uchun shaxsan javobgar ekanliklari bo‘yicha ogohlantirilsinlar;

arxiv ishi va ish yuritish holati bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish sifatini kuchaytirsinlar, tashkilot va korxonalarda davlat nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga qat‘iy rioya etsinlar;

ko‘rsatib o‘tilgan xato va kamchiliklarni o‘zlarining yig‘ilishlarida tanqidiy muhokama qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko‘rsinlar, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yakuniy (bandma-band bajarilishi bo‘yicha) umumlashtirilgan ma‘lumotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda joriy yilning 1-mart kuniga qadar (ushbu qarorda boshqacha muddat nazarda tutilmagan taqdirda) Agentlikka taqdim etsinlar;

xodimlar tomonidan xizmat doirasidagi tarqatish ruxsat berilmagan axborotlar konfidensialligining ta‘minlanishini doimiy nazorat qilib borsinlar;

ERI bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi hamda rahbar va xodimlarning elektron tizimlar bo‘yicha har qanday login va parollari o‘zga shaxslarga taqdim qilinmasligini qat‘iy nazoratga olsinlar;

shtat birliklari o‘zgarishi munosabati bilan xodimlar bilan mehnat munosabatlari bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirishda qonunchilik hujjatlari talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlansinlar, bunda har qanday maqsadga muvofiqlik vajlari bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan yondashuvlar taqiqlansin;

shtat birliklari qisqarishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinayotgan xodimlarni davlat arxivlarining vakant shtat birliklariga joylashtirish choralari ko‘rsinlar;

6. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh. Sadikov, X. Isayev), bosh mutaxassisi (L.Mirzayev):

ikki oy muddatda agentlik tizimidagi arxivlar faoliyatini tahlil qilgan holda ularning shtat birliklari va tuzilmalarini qayta tasdiqlash hamda shahar, tuman davlat arxivlari va ularning filiallari hamda shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining takrorlovchi faoliyatlarini o‘zaro muvofiqlashtirgan holda qayta tashkil qilish bo‘yicha tegishli hujjat loyihasini tayyorlasinlar.

2023-yil 1-martga qadar arxiv ishi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazib, ularni yanada takomillashtirish va muvofiqlashtirgan holda tizimlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf qilish va sohani raqamlashtirish ishlarini jadallashtirishga qaratilgan qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni tayyorlasinlar.

II. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish, hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh. Xojiboyev, N.Anarkulova, D.Yusupov, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish, hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan topshiriqlarning 2022-yil davomidagi ijro holati batafsil tahlil qilindi.

“Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan va 2022-yil davomida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar soni **jami 94 tani** tashkil etganligi, topshiriqlarning barchasi belgilangan muddatlardan kechiktirilmasdan ijrosi ta’minlangan.

2022-yil davomida Agentlik markaziy apparatida **jami 46 ta** direksiya yig‘ilishi o‘tkazilgan.

2022-yil davomida Agentlikka kelib tushgan hujjatlar **4823 tani**, yuborilgan hujjatlar **1697 tani** tashkil etgan, **220 ta** asosiy faoliyatga oid, **217 ta** shaxsiy tarkibga oid buyruqlar va **27 ta** farmoyishlar ishlab chiqilgan.

Hisobot davrida Agentlik tomonidan **167 ta**, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari (**15 ta**), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (**27 ta**), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (**66 ta**), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari (**59 ta**) ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qilingan.

“O‘zarxiv” agentligi rahbariyati tomonidan 2022-yil davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlardagi tuman, shaharlarda jismoniy va yuridik shaxslarning sayyor

qabuli jadvaliga asosan **25 ta** (2021-yil 25 ta) sayyor va shaxsiy qabullar o'tkazilib, ularda **157 nafar** (2021-yil 168 ta **93%**) fuqarolar murojaatlari ko'rib chiqilgan.

Agentlikka 2022-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **1042 ta** (2021-yil 1018 ta, **102%**) jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali **668 ta** (2021-yil 706 ta **90%**), Sayyor va shaxsiy qabullarda **157 ta** (2021-yil 168 ta **93%**), Agentlikka to'g'ridan-to'g'ri yozma **196 ta** (2021-yil 136 ta **138%**), Mas'ul xodimlar qabuli **11 ta**, idoraviy aloqa markazidan (ishonch telefoni) **10 ta** (2021-yil 8 ta **100%**) murojaatlar kelib tushgan.

Respublika davlat arxivlariga jami jismoniy va yuridik shaxslardan **2185 ta** (2021-yil 4157 ta, **52%**) murojaatlar kelib tushgan hamda o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi, shundan **1069 ta** (2021-yil 3056 ta **34%**) murojaat qanoatlantirildi, **918 tasi** (2021-yil 875 ta **104%**) tushuntirishlar berildi, **191 tasi** (2021-yil 204 ta **93%**) tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan va **7 ta** murojaatning ijrosi bajarilmoqda.

Agentlik va uning tizimidagi davlat arxivlariga 2022-yil davomida kelib tushgan jami murojaatlar sonini 2021-yilda kelib tushgan murojaatlar soniga nisbatan 52 foizga qisqartirishga erishilgan.

Agentlik va uning tizimidagi arxivlarga kelib tushgan murojaatlarning aksariyat qismi ijtimoiy-huquqiy mazmundagi, ya'ni fuqarolarning mehnat staji va ish haqini tasdiqlash to'g'risida arxiv ma'lumotnomalarini olish bo'yicha so'rovlardan iborat.

2022-yilda respublika arxivlariga jami **538 826 ta** so'rovlar kelib tushgan bo'lib, shundan **83 332 ta mavzuli** (2021-yilga nisbatan, 58%), **455 494 ta ijtimoiy-huquqiy** mazmundagi (2021-yil 635 266 ta, **71%**) so'rovlar (shundan davlat arxivlariga 226 724 ta (2021-yil 326 109 ta **69%**), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 228 770 ta (2021-yil 309 157 ta **73%**) kelib tushgan.

Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali **335 135 ta** (2021-yil 450 719 ta **74%**), pochta va elektron pochta orqali **47 113 ta** (2021-yil 38 905 ta **121%**) ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar kelib tushgan bo'lsa, **73 246 nafar** (2021-yil 145 642 nafar **50%**) fuqaro bevosita arxivga **murojaat qilgan**.

Arxiv hujjatlari asosida **346 267 ta** (2021-yil 461 411 ta **75%**) so'rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **312 628 tasi** (2021-yil 430 785 ta **72%**) ijobiy, **33 639 tasi** (2021-yil 30 626 ta **109%**) bo'yicha esa tegishli ko'rsatma va tushuntirishlar berilgan. Tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmagan va taalluqligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan so'rovlar soni **98 453 tani** (2021-yil 167 149 ta **58%**) tashkil etdi.

Agentlik tizimidagi arxiv muassasalarida bugunga qadar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik hamda huquqbuzarlikka yo'l qo'yganliklari uchun **2 nafar** rahbar va mas'ul xodimga jiddiy ogohlantirish berilib, **32 nafar** (2021-yilda 31 ta) rahbar (12 nafari) va mas'ul xodimlar (19 nafari) intizomiy **javobgarlikka tortilgan**.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-sentabrdagi 597-son qarori bilan tasdiqlangan yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash hamda mavzuli so'rovlarni ijro etish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarida belgilangan ayrim tartiblariga rioya etilmaganlik holatlari aniqlanib, davlat arxivlarida davlat xizmatini ko'rsatishda qonunchilik hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilishi aniqlangan holatlar yuzasidan jami

40 nafar, shu jumladan, Toshkent shahar (5 ta), Andijon (11ta), Surxondaryo (8 ta), Samarqand (4 ta), Buxoro (3 ta), Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent (2 tadan), Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining (1 tadan) xodimlariga nisbatan intizomiy **jazo choralari qo‘llanilgan**.

Shu bilan birga, Toshkent (D.Rayimjonov), Sirdaryo (O‘.Burxanova), Samarqand (A.Mamanazarov) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan oktabr, noyabr va dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosi to‘g‘risidagi **hisobotlari Agentlikka kiritilmagan**.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida Agentlik Hay‘ati **qaror qiladi**:

1. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning kun tartibidagi masala bo‘yicha bergan axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Milliy arxivlari direktorlarining (D.Zakirova, A.Maxkamov) hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent (D.Rayimjonov), Sirdaryo (O‘.Burxanova) va Samarqand (A.Mamanazarov) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

ijro intizomi yo‘nalishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklari uchun ogohlantirilsinlar; bir hafta muddatda yuqorida qayd etilgan topshiriqlar ijrochilari va nazorat va ijro intizomiga mas‘ul shaxslarga nisbatan vakolat doirasida qat‘iy choralar ko‘rsinlar.

4. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh.Sadikov, X.Isayev) hamda Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (D.Yusupov):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan talablar asosida topshiriqlarning o‘z vaqtida va to‘laqonli bajarilishi yuzasidan ta‘sirchan choralar ko‘rsinlar;

topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar, bunda markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va O‘zbekiston milliy arxivlarida ishlarning real holatini tanqidiy o‘rganishga e‘tibor qaratsinlar;

topshiriqlarni bajarish bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat‘iy amal qilgan holda tashkil etsinlar.

5. Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (D.Yusupov):

“O‘zarxiv” agentligi tizim tashkilotlarida ijro intizomini ta‘minlash va ish yuritishni tashkil etishda metodik ko‘maklashish amaliyotini davom ettirsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarga intizomiy jazo choralari qo‘llash to‘g‘risida takliflarni “O‘zarxiv” agentligi direktoriga kiritib borsin.

6. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh.Sadikov, X.Isayev), barcha bo‘lim boshliqlari va mas‘ul xodimlarga o‘zlarining xulq-atvori, yurish-turishi, madaniyati bilan qo‘l ostidagilarga shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari, mas‘uliyat va

javobgarlikni, har bir noqonuniy xatti-harakat uchun jazo muqarrarligini chuqur his etgan holda faoliyatini tashkil etishi lozimligi ko'rsatib o'tilsin.

7. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (Sh.Sadikov), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari "O'zarxiv" agentligi va uning hududiy va tizim tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tizimli tashkil etish, murojaatlarni ko'rib chiqishning natijadorligini ta'minlash uchun:

jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining, shuningdek takroriy murojaatlarning ko'payishi sabablarini o'rganish hamda kelgusida ularni kamaytirish, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsinlar;

joylardagi tizimli muammolarni aniqlab, ularni hal etish choralarini ko'rsinlar, murojaatlarni, ayniqsa takroriyularining har birini, o'z vaqtida sifatli ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik va yuzakichilikka yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rsinlar;

rahbarlar tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning (vakillari) bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o'tkazish amaliyotini davom ettirsinlar, qabullarda ko'tarilgan masalalar o'z vaqtida to'liq va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar, muammolarni imkon qadar joyida hal etish choralarini ko'rsinlar;

Hay'at, direksiya yig'ilishlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ishlarning ahvolini muntazam muhokama etib borish va tegishli tarkibiy tuzilmalarda monitoringlar o'tkazsinlar, qonunda belgilangan talablarni buzgan mas'ul xodimlarga nisbatan keskin choralar ko'rib borsinlar;

murojaatlar bo'yicha ish yuritishni yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasini oshirish choralarini ko'rsinlar;

tizim tashkilotlariga nisbatan murojaatlar bilan ishlash bo'yicha talabchanlikni oshirish, ularga doimiy amaliy yordamlar ko'rsatish va tavsiyalar berib borish choralarini ko'rsinlar.

III. Davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh. Xojiboyev, A. Ziyatdinov, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

"O'zarxiv" agentligi bo'lim boshlig'i A.Ziyatdinovning davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risidagi axboroti eshitildi.

2023-yil 15-fevral holatiga ko‘ra, O‘zbekiston milliy arxivlari va davlat arxivlari tomonidan tizimda **jami 45416** ta fond, **40124** ta ro‘yxat, **343158** saqlov birligi va **77618** ta hujjat yaratilgan.

Tizimdan olingan ma‘lumotga ko‘ra, O‘zbekiston Milliy arxivi, Navoiy viloyati, Xatirchi, Karmana, Qiziltepa Nurota, Konimex, Tomdi tumanlari, Zarafshon shahar davlat arxivlari, Farg‘ona viloyati davlat arxivi, Xorazm viloyati Yangibozor tumani davlat arxivi, Buxoro viloyati, G‘ijduvon, Vobkent tumanlari, Kogon shahar davlat arxivlari, Samarqand viloyati Samarqand tumani davlat arxivi tomonidan tizimga ma‘lumotlar kiritish bo‘yicha ishlar samarali tashkil etilgan.

Shu bilan birga, ayrim arxivlar tomonidan tizimga ma‘lumotlarni kiritish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida Agentlik Hay‘ati qaror qiladi:

1. “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i A.Ziyatdinovning kun tartibidagi masala bo‘yicha bergan axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta‘minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma‘lumotlarni kiritish bo‘yicha 2023-yillik (chorak kesimida) reja shakllantirsinlar va va **10 kunlik muddatda** Agentlikka taqdim etilishini ta‘minlasinlar;

“Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta‘minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma‘lumotlarni (fond, ro‘yxat, saqlov birligi, hujjat, bibliografiya) kiritish ishlarini jadallashtirish bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rsinlar;

tizimga kiritilgan ma‘lumotlarning imloviy xatolarini to‘g‘rilash va kelgusida bunday xatoliklar qaytarilmaslik choralari ko‘rsinlar.

3. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari (X.Isayev), bo‘lim boshlig‘i (A.Ziyatdinov), Bosh buxgalter (F.Suyunov) “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta‘minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma‘lumotlarni kiritish bo‘yicha eng faol xodimlarni moddiy rag‘batlantirish yuzasidan taklif kiritsinlar.

IV. Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlarida hamda O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida o‘tkazilgan o‘rganishlar to‘g‘risida:

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh. Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, N.Axmadaliyev, A.Maxkamov, U.Yusupov)

“O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i Sh.Xojiboyevning **Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlarida hamda O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida o‘tkazilgan o‘rganishlar to‘g‘risidagi** axboroti eshitildi.

O‘rganishlar davomida Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmalari va ularning tizimidagi davlat arxivlari hamda O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida arxiv faoliyati “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi qonuni asosida tashkil etilgan.

Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ishlar yo'lga qo'yilgan.

O'rganilgan arxivlarda o'ziga xos erishilayotgan yutuqlari, arxiv ishi va ish yuritish sohasini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari mavjud.

Shu bilan birga, arxiv ishi va ish yuritish sohasini rivojlantirishda bir qator kamchilik aniqlandi:

a) Namangan viloyatida:

Namangan viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2022-yilda jamlash manbai bo'lgan tashkilotlarda arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish rejasi tasdiqlangan bo'lsada, biroq, **davlat nazorati o'tkazilishi rejalashtirilgan tashkilotlarga belgilangan muddatlarda davlat nazorati o'tkazilishi to'g'risida bildirishnomalar yuborilmagan;**

Namangan viloyati xalq ta'limi va Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalarida hamda Mingbuloq tuman soliq inspeksiyasida o'tkazilgan davlat nazorati tekshiruvlarida asosan idoraviy arxivda saqlash muddati o'tgan hujjatlar mavjudligi aniqlangan va mazkur holatlar bo'yicha ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215⁴-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikka sabab bo'lsada, biroq, ma'muriy bayonnomalar tuzilmagan;

davlat arxivlarini hujjatlarning hisobini yuritish bo'yicha mas'ul xodimlari tomonidan hujjatlarni hisobini yuritish va rasmiylashtirish tartibi bo'yicha qilingan ishlar o'rganildi. Hisob hujjatlarini yuritilishidagi kamchiliklari ko'rsatilib, **ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;**

o'rganish davomida Namangan viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi davlat arxivlari tomonidan 2022-yil 9 yilligida fuqarolarning **2 191 ta** mavzuli, **12 989 ta** ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlariga belgilangan muddatlarda javob berilgan bo'lsada, so'rovlar ijrosi o'rganilganda **6 ta so'rov muddati o'tib bajarilganligi aniqlandi;**

Boshqarmaning shtatlar jadvalida ish yurituvchi shtat birligi mavjud bo'lib, mazkur xodimning malakasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qaroriga muvofiq **oshirilmagan;**

Shu bilan birga, boshqarmada arxiv.ijro.uz tizimi orqali kelib tushayotgan hujjatlarga kirish shtampini **elektron tarzda qo'yish joriy etilmagan,** hamon hujjatlarga an'anaviy ravishda kirim shtamlari qo'yilgan;

b) O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida:

Arxivning barcha bo'limlar nizomlari va lavozim yo'riqnomalariga 2022-yilda tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, **lekin "Turli muassasa hujjatlarini yig'ish va qimmatdorligini aniqlash bo'limi"ning nizomi va lavozim yo'riqnomalari asosida belgilangan vazifalar mazkur bo'lim xodimlari tomonidan sust amalga oshirib kelinmoqda;**

o'rganish davomida arxivning jamlash manbalari bilan ishlash talab darajasida emasligi aniqlangan xususan, tashkilotlar ro'yxatini har yili yangilab borilmagan, kuzatuv yig'majildlari to'liq shakllantirilmagan, tashkilotlarning ichki arxiv ishi bo'yicha normativ hujjatlari to'liq emas, tashkilot bilan ishlash varaqchalari to'liq rasmiylashtirilmagan, o'rganish **ma'lumotnomalari to'liq emas,** tashkilotlarning elektron bazalari shakllantirilmagan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida Agentlik Hay'ati qaror qiladi:

1. "O'zarxiv" agentligi bo'lim boshlig'i Sh.Xojiboyevning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig'i N.Axmadaliyev va O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi direktori A.Maxkamov yo'l qo'yilgan kamchiliklari uchun ogohlantirilsinlar.

3. Namangan viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig'i (N.Axmadaliyev) va O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi direktori (A.Maxkamov):

bir oy muddatda ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rsinlar;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qaroriga muvofiq arxiv ishi va ish yurituvchi xodimlarning malakasini oshirishni tashkil etsinlar;

binolarining sig'imdorligi 100 foizni tashkil etgan davlat arxivlari uchun qo'shimcha saqlovxona qurilishi bo'yicha choralar ko'rsinlar;

xodimlarning sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorlik darajasi sustligini inobatga olib, normativ hujjatlarni muntazam o'rganish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rsinlar;

jamlash manbai ro'yxatlarini Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomiga (ro'yxat raqami 2360, 2012-yil 11-may) muvofiqligini qayta ko'rib chiqsinlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq ish yuritish va ijro intizomi hamda hujjatlar aylanmasini elektronlashtirilganligini inobatga olgan holda ish yuritish yo'riqnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritsinlar;

amalgam oshirilgan ishlar bo'yicha **2023-yil 15-martga qadar** asoslangan ma'lumotlarni Agentlikka kiritsinlar.

4. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorlari ijrosi yuzasidan umumiy nazorat Agentlik direktori o'rinbosari (Sh.Sadikov) zimmasiga yuklansin.

Hay'at a'zolari:

Sh. Sadikov

X. Isayev

D. Kucharova

A. Mamanazarov

D. Zakirova

Bayonnoma tuzuvchi:

Sh. Xojiboyev